

KITOB – AQL CHIROG‘I

Sh.Yu.Sultanova

*Shayxontohur tuman politexnikumining “Tillar”
kafedrasi mudiri, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Kitob – insonning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi, aql qayrog‘i va bilim manbaidir. Kitob – fikrlash quroli, xazina- lar kaliti, tafakkur manbai. Kitob – nonday aziz, mo‘tabar va muqaddas.

Kitob insoniyat ongli hayotining, ma’naviyat olamining bosh timsollaridan sanalib kelinadi. Insoniyatning juda ko‘p mashhur donishmandlari kitob sha’niga minnatdorchilik va taskin so‘zlar aytib qoldirganlar.

Kitobga tafakkurning tolmas qanoti deb ta’rif berish- ganda, uning ma’naviy olamni boyitish, yuksak ijodiy va yaratuvchanlik orzulari ichida harakat qilib yashash nazarda tutilgan bo‘lsa kerak. Buyuk bobolarimiz bola tarbiyasida kitobning o‘rni kattaligini, kitobni nihoyatda qadrlash, beباho adabiy merosdan samarali foydalanish kerakligini ta’kidlab o‘tganlar. Ular qahraton qish kunlarida ham, oydin va qorong‘u kechalarda ham bir joyga to‘planib kitobxonliklar, g‘azalxonliklar o‘tkazishgan, hozirgi til bilan aytganda, adabiy kechalar qilishgan.

Kitob o‘qish madaniyati

Ko‘pchilik yuqoridaagi sarlavhadan ajablanishi mumkin. Nahotki, “Kitob o‘qish madaniyati” bo‘lsa?! Ha bor!

Shuni alohida ta’kidlash kerak-ki, Kitob o‘qish madaniyati juda keng tushuncha va murakkab muammo bo‘lib, taxminan quyidagi holatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Kitob tanlab olish;
2. Kitobni qanday o‘qishni bilish;
3. Kitob o‘qiganda nimalarga e’tibor berish va nimalarni esda saqlab qolish;
4. Kerakli ma‘lumotlarni qayerdan, qanday, qaysi vosita- lardan foydalanib topish;
5. Olingan bilimni yoki xabarni qanday yetkazib berish;
6. Qayta o‘qish-kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish;
7. Kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilish;
8. Kitobni tez va sekin o‘qishni farqlay olish;
9. Kitobni o‘qib, uning fusunkor olamiga kira bilish;
10. Kitobni mustaqil o‘qiy bilish.

Shunchaki dam olish, vaqtini o‘ktazishni istagan kitobxon kitobda ko‘ngilni poklovchi, ruhiy yuksaltiruvchi noma’lum bir kuchni sezadi. Biroq, bu kuchni aniq tasavvur etmaydi va baholay olmaydi. Ular tibbiyotdan mutlaqo bexabar xastalarga o‘xshaydi, ya’ni aynan qaysi dori kerak ekanligini tushunmay har bir qutidagidan tatib ko‘ra boshlaydi. Aslida, o‘qish borasida ham har bir kishi o‘zi uchun zarur bo‘lgan, yangi kuch va ruhiy ta’sir beradigan kitoblarni tanlay olishi kerak.

Kishilarning ko‘p o‘qishi albatta, yoqimli va aynan ijodkor tomonidan haddan tashqari ko‘p o‘qishadi deyish noo‘rin. Ammo mingta loqayd kitobxonidan o‘nta savodli kitobxon durust. Kitoblar insonni hayotga yo‘lla- ganda, unga xizmat etganda biror foydasi bo‘ladi. Agar kitob- xonga oz bo‘lsa ham kuch-g‘ayrat, shijoat, ruhiy poklik baxsh etmasa o‘qish uchun sarf etilgan har soat behuda, keraksiz bo‘lib chiqadi.

Shunchaki o‘qish – bu diqqatni to‘plashga majbur etuvchi mashg‘ulot va ovunish uchungina o‘qish o‘z-o‘zini aldashdir. Loqayd kishilar uchun umuman biron narsadan ovunishning hojati yo‘q. Aksincha, ular hamma joyda diqqat e’tiborli bo‘lishi, qayerda bo‘lmasinlar, nima haqida fikr yuritmasinlar butun vujudi ila voqealar girdobini his etmog‘i zarur. Mutolaadan yangi kuch-g‘ayrat olish uchun oldiniga kuch sarf etmoq, o‘zingni yanada yaxshi tushunmoq uchun avvaliga o‘zingni “yo‘qotmoq” kerak bo‘ladi.

Agar har bir o‘qilgan kitob quvonch va alam, shijoat va ruhiy tazarru keltirmasa jahon adabiyoti tarixini bilishdan ma’no yo‘q. Mulohaza qilmasdan o‘qish – xushmanzara tabiat qo‘ynida ko‘zni bog‘lab yurishga o‘xshaydi. Biz o‘zimizni va turmushimizni unutish uchun emas, hayot jilovini yanada ongli ravishda anglash uchun o‘qishimiz kerak.

Har bir kitobxonga qanaqa kitob o‘qish va sotib olish borasida mustahkam maslahat, qoidani ko‘rsatib bo‘lmaydi. Bu ishda har bir kishi o‘z did va bilimiga suyanmog‘i darkor. Aslida kitobxon ikkinchi bor mutolaada ham yaxshi taassurot qoldirgan kitobni albatta sotib olgani tuzuk, garchi u qimmatroq tursa ham.

Yuzta eng yaxshi kitob yoki muallif bo‘lmaydi. Eng to‘g‘ri, eng aniq va umuman inkor etib bo‘lmaydigan tanqid ham yo‘q. Kimda kim umum tomonidan qabul qilingan qoida va qolipli fikr- larga emas, o‘zining nozik did va yurak amriga qulqoq tutsagina kitoblarning sehrli olamini kashf etishga musharraf bo‘ladi”.

Shunday qilib, kitob insonning yaqin do‘sti va doimiy yo‘ldoshi bo‘lib, uning aqliy taraqqiyoti va ma’naviy kamoloti- ga yordam beradi. Kitobsiz yashash mumkin emas, chunki har qanday kishi faqat kitob orqaligina insoniyat tarixi va o‘tmishi haqida aniq tushunchaga ega bo‘ladi. Kitob kishi ongini boyi- tadi, uning tabiat va jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarni bilib olishiga imkon beradi. Eng muhimi, kitob kishini to‘g‘ri yashash va hayotda o‘ziga mos o‘rin tanlab olishga o‘rgatuvchi dars- lik hamda inson uchun eng beminnat do‘stdir. Chunki undan istalgan vaqtida foydalanishimiz mumkin. Binobarin, kitoblar sizga hech qanday shart qo‘ymaydi. Shu boisdan ham kitob o‘tmishi ham, bugun va ertani ham bog‘lab turuvchi kuchli vositadir.

Xalqimiz qadimdan farzandlarining sog‘lom, aqli, dono, mehnatsevar, xalqparvar bo‘lishini orzu qilgan, shunga intilgan. Qadimgi qo‘sishqlar, maqol, afsona, dostonlarda, qasida hatto marsiyalarda ham ana shu holatlar o‘z ifodasini topgan. Bu jihatdan Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Sayfi Saroyi, Xorazmiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy va boshqa adiblarning nomlarini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek adabiyoti o‘zbek xalqining o‘zi singari juda boy, qadimiy tarixga ega. Uning o‘ziga xos shakllanishi va taraqqiyot yo‘li, rivojlanish qonuniyatları bor. Bularni

his etish, anglash va umumlashtirish uchun uning tarixini puxta o‘rganish zarur, buning uchun ko‘p kitob o‘qish zarur.

Donolar kitob haqida

Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir.

A.Temur

Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to‘plab, avlod- larga yetkazadi.

Oybek

Kitobdagi quvonch va iztiroblarni o‘quvchi o‘ziniki deb qabul qilsagina, o‘sha haqiqiy asardir.

O‘tkir Hoshimov

Kitobni tushunib mutolaa qilish kerak.

Abdulla Qodiriy

Kitob qaysi janrda o‘qilmasin o‘qishli bo‘lishi kerak. Kitobning o‘qishli bo‘lishi muallifning kitobxonga aytadigan to‘la mag‘izli va juda zarur fikri bo‘lganini ko‘rsatadi.

Abdulla Qahhor

O‘qing va o‘rganing. Jiddiy kitoblarni o‘qing. Qolganini hayotning o‘zi tushuntirib beradi.

F.Dostoyevskiy

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev., Erkin va demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz., T:O’zbekiston, 2016 y.
2. Sh.Mirziyoyev., Miliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. 1-jild. T:O’zbekiston, 2019 y.
3. Sh.Mirziyoyev., Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz., T: O‘zbekiston, 2017 y
4. N Abdullayeva., Kitob bebahoh xazina: (Bolada kitob mutolaasiga muhabbatni shakllantirish xususida) Xalq so‘zi.-2005.-8 apr.